



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BILAN OILA HAMKORLIGI.

Xolmatova O'g'iloy Tojiddin qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti maktabgacha ta'lim 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ushbu maqolada Maktabgacha Ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorligi bolaning tarbiyasi uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktab, oila, MTT, bolalar, bola tarbiyasi, oila tarbiyasi, pedagog-tarbiyachi, kitob, ota-onalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti o'laroq 2018-yilda maktabgacha ta'lim sohasida bolalar qamrovi 34,4% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2019-yil yarim yilligi yakunida 40,5% ni tashkil etdi.

Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta'lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e'tiborlari natijasidir. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Qanday qilib ta'lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo'ladi? Shuni aytib o'tish joizki, sifatli ta'lim birinchi navbatda ta'lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

Albatta mashg'ulotlar tarkibiga yangiliklarni kiritish, ilg'or ish uslublari va metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida pedagogdan kasbiy mahorat talab etadi. Barchamizga ma'lumki, bola uchun birinchi va eng mukammal tarbiyachi bu ota-onadir. Shunday ekan, oila bilan hamkorlik masalalari, ayniqsa bola tarbiyasida otalar o'rni muhimligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlar tarbiyachining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokama





qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarakatrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Maktabgacha Ta'lim Tashkilotining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim. Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Bolalar bog'chasi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda direktor, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona birbirlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor.





Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang- barang bo‘lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya tashkilotlariining yillik ish rejasi to‘g‘risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir. Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog‘laydilar.


Maktabga borish bola hayotidagi jiddiy o‘zgarishlar davri hisoblanadi. Mazkur davr bilan bolaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bolaning oldingilardan farq qiladigan faoliyat shakllarini o‘rganishiga to‘g‘ri keladi. Kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarning boshqa uslubini o‘rnatish, fiziologik jihatdan o‘zgarishi ham talab etiladi.

Xo‘sh, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o‘qishi uchun ularni fanlar bo‘yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o‘qishga bo‘lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o‘zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma‘lum darajasini shakllantirish lozimdir.

Ko‘rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki uning maktabgacha ta‘lim muassasasiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo‘lsak, uni oldinroq ham boshlash lozim. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba‘zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo‘lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o‘rgatish ham mushkul bir vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta‘lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta‘lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta‘limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o‘yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o‘zaro munosabatlarda qo‘llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi





hisoblanadi. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, maktab, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri) . T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b
2. O'.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.:1994-y.
3. Z.G'ofurov, S.Toshev. Ma'naviyat saboqlari. Qarshi. 1999-y.
4. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.

